

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoiraz Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
S.S. Ismailov	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	



MUAMMOLI KREDITLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li
AT Xalq banki Kredit administratsiyasi
markazi bosh mutaxassisi



Annotatsiya: Maqolada muammoli kreditlarni bartaraf etish masalasi qarz oluvchilarning oylik kredit to'lovlarini to'lamagan holati sifatida tadqiq etilib, banklar bunday muammoli kreditlarni ishlamaydigan aktivlar (IA) sifatida belgilaydi. Mazkur maqolada muammoli holatlarni tijorat krediti yoki iste'mol kreditini puxta rejalashtirmay, kredit oluvchining ijtimoiy tarixini o'rganmay turib kredit ajratish holatida sodir bo'lishi mumkinligi ilmiy isbotlangan. Tadqiqotda muammoli kreditlarning shunday sodir bo'lish holatlari tahlil qilinib, uning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli kreditlar, ishlamaydigan aktivlar, risklar, kreditlash, ichki nazorat, qarz oluvchi.

Abstract: The article discusses the elimination of problem loans, which are defined as situations where borrowers have defaulted on their monthly loan payments. The bank defines such problem loans as non-performing assets (IA). These problematic situations can occur in the case of granting a loan without carefully planning a commercial loan or a consumer loan, without studying the borrower's social history. In our research, the cases of problem loans are analyzed and innovative proposals and recommendations are made for their prevention.

Key words: problem loans, non-performing assets, risks, lending, internal control, borrower.

Аннотация: В статье рассматривается устранение проблемных кредитов, которые определяются как ситуации, когда заемщики не выполняют свои ежемесячные платежи по кредиту. Банк определяет такие проблемные кредиты как проблемные активы (НД). Эти проблемные ситуации могут возникнуть в случае выдачи кредита без тщательного планирования коммерческого кредита или потребительского кредита, без изучения социальной истории заемщика. В нашем исследовании анализируется возникновение проблемных кредитов и вносятся инновационные предложения и рекомендации по их предотвращению.

Ключевые слова: проблемные кредиты, проблемные активы, риски, кредитование, внутренний контроль, заемщик.

KIRISH

So'nggi yillarda tijorat banklarida aktivlar hajmining o'sish tendensiyasi hukm surayotgan bir vaqtda, ularning sifati (shu jumladan, kreditlar) hamda banklarning kredit risklarini boshqarish qobiliyatini doimiy takomillashtirish taqozo etilmoqda va bu o'z navbatida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim".

Hozirgi davrda mamlakatimizda ilmiy-nazariy hamda amaliyotchi olimlar tomonidan «muammoli kredit» tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko'proq bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, bejizga emas, chunki bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi, uni kamaytirish choralari ko'rilishiga qaramasdan anchagina yuqori foizni tashkil etmoqda. Xozirda jahon iqtisodiyotining globallasuvi oqibatida ko'pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammasiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.



Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tijorat banklaridagi mavjud muammoli kreditlarni undirish amaliyotini amalga oshirishning joriy holati tahlil qilinib, bank kredit portfelining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ushbu masalada rus iqtisodchi-olimlari Zaichenko S. E., Platonova Yu.Yu. va Rubleva Ye. N.larning fikrlariga ko'ra, qarz oluvchi tomonidan qarzni to'liq yoki o'z vaqtida to'lamaslik ehtimolini keltirib chiqaradi.

Bu borada muammolarini tadqiq qilishda xorijlik olimlar Gordon J. Alexander, Chzis J. Barltop, William F. Shorpe va rus olimlari O.I.Lavrushin, G.S.Panova, N.Ya.Sokolinskaya, V.M.Usoskin, Z.G.Shirinskaya qator ilmiy ishlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, ular faoliyatida mavjud muammolar, nazariy asoslari kiritilgan.

Yevropalik olimlar rus olimlari tomonidan ilgari surilgan kredit to'lovlaridagi muammoli holatlarni tadqiq qilishda mahalliy iqtisodning xususiyatlarini inobatga olgan holda rus olimlarining fikrini inkor etmagan.

Mahalliy iqtisodchilardan Sh.Z. Abdullayeva, T.S. Malikov, S.X. Norqobilov, T.M. Qoraliyev, Z.A. Xolmaxmadov, M.B. Nurmurodov, A.K. Qodirov, N.F. Karimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kreditlash riski, uning oldini olish va muammoli vaziyatlarni samarali boshqarish tadqiq qilingan.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari ko'proq bank faoliyatining u yoki bu turi risk bilan bog'liq ekanligiga, unga ta'sir qiluvchi omillarga bag'ishlangan xolos. Ularda bank risklarining makro darajadagi umumiy risklardan farqli xususiyatlari, ularni o'z vaqtida anglamaslik tufayli muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, kredit risklari, umuman bank risklarini hisoblash uslublari, tijorat banklari kredit portfeli tahlili va uni diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirgan holda bank xavfsizligini ta'minlash masalalari to'la kiritilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki, muammoli kreditlarning yuzaga kelishi kredit riskining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, natijada bank qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq qaytara olmasligi va bank bunday qarz oluvchilarga kredit berish bilan bog'liq zararlarni keltirib chiqarishi mumkinligidan xavotirda bo'ladi. Shuning uchun bank amaliyotida muammoli kreditlar ko'pincha past sifatli kreditlar deb yuritiladi. Muammoli kreditlarning bu talqini muammolarni yuzaga kelishi natijasidagi yo'qotishlarga qaratiladi. Biroq, har bir muammoli kredit ham yo'qotishlar bilan yakun topmaydi. Bankning vazifasi esa ehtimoliy yo'qotishlarning oldini olish, yoki minimallashtirishdan iboratdir. Xususan, banklarning kredit uchun resurslar jamlashdagi faolligi, aholi va yuridik shaxslarning bo'sh mablag'larini bank depozitlariga, birinchi navbatda, muddatli va jamg'arib boriladigan depozitlarga jalb qilish ishlari yetarli emasligi, tijorat banklari ustav kapitali asosan davlat ulushi hisobiga oshirilib, xususi sektor mablag'lari deyarli yo'naltirilmagani asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, tashkil etilgan kuzatuv kengashlari banklarning strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va faoliyatini yaxshilash bo'yicha yetarli ish olib bormayapdi. Davlat tasarrufidagi banklarning kuzatuv kengashlari faoliyatini tanqidiy o'rganish va moliya muassasalari faoliyatini takomillashtirish uchun xorijdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hukumat tomonidan pul-kredit siyosatining samarali qo'llaniladigan foiz instrumentlari turlarini kengaytirish, tijorat banklari tomonidan foiz stavkalarini shakllantirish, shu jumladan, kreditlar bo'yicha bozor mexanizmlarini keng joriy etishda normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish zarur.

Natijada aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirish, banklar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali va o'zaro manfaatli munosabatlarni ta'minlash borasida mavjud to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy hujjatlarni ixtisoslashgan xalqaro moliya institutlari xulosalarini inobatga olgan holda qayta ishlab chiqish lozim.

Mamlakatimizda pul-kredit siyosatining samarali qo'llaniladigan turlarini kengaytirish, banklar bilan aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali, o'zaro manfaatli munosabatlarni ta'minlash borasida mavjud to'siqlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bankdan qarz oluvchilar kechiktirilgan muddatlardan tashqari ketma-ket to'lovlarni o'tkazib yuborsa, bu holat bank tilida "kredit defolti" deb hisoblanadi. Kechiktirilgan to'lov yoki qarzni to'lash qarz oluvchilarning kredit ballarini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu qarz oluvchining kredit tarixida doimiy ko'rsatkichga aylanadi. Kredit tarixining yomonligi esa qarz oluvchiga kelajakdagi ishlarini rivojlantirish uchun olmoqchi bo'lgan kreditlarni kafolatlashni qiyinlashtiradi.

Agar qarz oluvchilar ketma-ket oylar davomida kredit to'lovlarini to'lay olmasa, ularning kredit hisobi ishlaymaydigan aktiv (IA) deb nazoratga olinishi lozim bo'ladi. Bunday holat sodir bo'lganda qarz oluvchining kredit ballari yomonlashadi.

Odatda, tijorat kreditlari 90 kunlik muddat bilan beriladi, iste'mol kreditlari qarz oluvchilarga to'lovlarni to'lash uchun 180 kun vaqt beradi. Belgilangan muddatdan tashqari qarz muammoli kredit sifatida tasniflanadi.



Muammoli kreditlar hajmi qancha ko'paysa, bank tizimi uchun jiddiy to'siqlarni hosil qiladi. Bu muammoli kreditlar pul oqimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir bank o'zining kreditlash tarixida muammoli kreditlar bilan shug'ullanishga majburdir.

Bugungi kunda bank ko'plab kredit turlarini mijozlarga taklif qiladi, xususan, tijorat kreditlari va iste'mol kreditlari eng keng tarqalgan. Tijorat kreditlari korxona va kompaniyalarga, iste'mol kreditlari esa jismoniy shaxslarga maishiy texnika va xo'jalik uchun zarur bo'lgan predmetlarni xarid qilish uchun beriladi.

Kredit olish oson, berish ham oson, lekin kreditlarni belgilangan tartibga qaytarish grafigi mavjud, o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda ma'lum bir kechiktirish muddati mavjud. Bu muddatdan keyin qarz muammoli kreditga aylanadi.

Har bir bankda muammoli kreditlar nisbati mavjud. Banklar bu nisbatni past darajada ushlab turishga harakat qilishadi. Shunga qaramay, doimiy muammo kreditlarning kichik bir qismi to'lanmasligida bo'lib turadi. Maslan, shartnomada ko'rsatilgan kunda qarz oluvchi foizini to'lay olmasa, bu har qanday qonuniy sabablarga ko'ra o'rganilishi mumkin – moliyaviy qiyinchiliklar, biznesdagi yo'qotishlar, tabiiy ofatlar, pandemiyalar yoki to'satdan shaxsiy xarajatlar kabi vajlar bo'lishi mumkin. Biroq, muammoli to'lov tarixi qarz oluvchining kredit qobiliyatiga – past kredit ballariga keskin ta'sir qiladi.

To'lov muddatini o'tkazib yuborgan qarz oluvchilar darhol defolt hisoblanadi degan noto'g'ri tushuncha mavjud. Aslida, qarz oluvchi oylik to'lovlarni ketma-ket o'tkazib yuborsa, bank ular bilan bog'lanib, bo'lib-bo'lib to'lashni so'raydi. Bank kreditni qayta tashkil qiladi – bu yordam qarz oluvchi moliyaviy barqaror bo'lgunga qadar ijobiy imkoniyat hisoblanishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qarz oluvchi yangi kredit olish uchun murojaat qilganda, oldingi to'lovlarni kechiktirish qiyinchiliklarga olib keladi – kreditorlar sanksiya berishdan oldin ikkilanishadi. Bundan tashqari, kredit ballarini muntazam ravishda to'lash orqali yaxshilash uchun ko'p vaqt talab etiladi.

Muammoli kredit hisobotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, to'liq kredit to'lash kamdan-kam hollarda sodir bo'ladi. Bunday vaziyatlarda bank kredit turiga qarab katta zarar ko'radi. Masalan, agar kredit garov ta'minotidan foydalangan holda ruxsat etilgan bo'lsa, bank mulkni hibsga olishi yoki asosiy aktivni sotishi mumkin. Ammo garovsiz kreditlar (garovsiz) kreditor uchun katta xavf hisoblanadi. Natijada garovsiz kreditlar bo'yicha foiz stavkalari nisbatan yuqori ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Olib borilgan tahlillarimizga ko'ra, 2022-yil davomida O'zbekiston tijorat banklaridagi muammoli kreditlar jami 2 trln. 353,8 mlrd. so'mga kamaygan va yil yakunida 13 trln. 992,4 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bunda kredit portfeli yil avvaliga nisbatan qariyb 20 foizga o'sgan bo'lsada, tizim bo'yicha muammoli kreditlar ulushi yil boshidagi 5,02 foizdan yil yakuniga kelib 3,59¹ foizga tushgan.

Davlat banklaridan deyarli barchasida muammoli kreditlar ulushi kamaygan (jami davlat banklari bo'yicha 5,38 foizdan 3,89 foizgacha kamaygan). NPL ulushini yil avvaliga nisbatan sezilarli kamaytirgan Xalq banki (-7,75 foiz) va Aloqabankni (-2,03 foiz)ni alohida qayd etish mumkin. Shuningdek, miqdor jihatdan O'zmilliybankda (-667,2 mlrd. so'm) va O'zsanoatqurilishbankda (-270,8 mlrd. so'm) muammoli kreditlar sezilarli kamaygan.

O'zagroeksportbankda muammoli kreditlar yil boshidagi 55,48 foizdan yil yakuniga kelib 96,29 foizga chiqqan (bank kredit portfeli 30,1 mlrd. so'mdan 6,2 mlrd. so'mga kamayib ketganini e'tiborga olish lozim).

Boshqa banklarda muammoli kreditlar ulushi 2,81 foizdan 2,06 foiz darajasigacha tushgan. Muammoli kreditlar Ravnaqbankda (+112,4 mlrd. so'm, +48,41 foiz), Trastbankda (+81,3 mlrd. so'm, +1,93 foiz), Tenge bank (+59,9 mlrd. so'm, +0,30 foiz), Anorbank (+47 mlrd. so'm, +1,55 foiz), Madad Invest bank (+14,5 mlrd. so'm, +8,07 foiz) hamda Davr bank (+26,6 mlrd. so'm, +0,56 foiz)larda muammoli kreditlar ulushi sezilarli ortgan.

Boshqa banklar orasida Aziya Alyans bank (-113,2 mlrd. so'm), Invest Finans bank (-30,2 mlrd. so'm), Ipak Yo'li bank (-72,2 mlrd. so'm), Hamkorbank (-37,7 mlrd. so'm) hamda Kapital bank (-53,6 mlrd. so'm) biroz faol bo'lishgan.

Muammoli kreditlarning miqdoran kamayishi ularning to'liq so'ndirilganini anglatmasligi mumkin.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning iyun oyi davomida O'zbekistondagi tijorat banklarining muammoli kreditlari qoldig'i qariyb 336 mlrd.so'mga kamaygan va yarim yillik yakuni (1 iyul holatiga) NPL qoldig'i 14 trln 303 mlrd so'mni tashkil etgan. Muammoli kreditlar ulushi 3,38 foiz (iyun oyiga nisbatan 0,11 foizga kam) darajasida qayd etilgan.

Muammoli kreditlar qoldig'ining miqdoriy kamayishi asosan davlat banklari, xususan O'zmilliybank (-140,6 mlrd so'm), Agrobank (-52,6 mlrd so'm), Turonbank (-53 mlrd so'm), Asakabank (46,1 mlrd so'm) va O'zsanoatqurilishbank (-37 mlrd so'm) hissasiga to'g'ri kelgan.

Davlat ulushi sotilgan Ipoteka bankda muammoli kreditlar iyun oyi davomida 64,5 mlrd so'mga ortgan. Shuningdek, Ipak yo'li bankda (+21,3 mlrd so'm) va TBC bankda (+9,3 mlrd so'm) muammoli kreditlar qoldig'i nisbatan ko'paygan.

1 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг Cbu.uz расмий сайти маълумотлари асосида ҳисобланди



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini samarali ta'minlash uchun quyidagi xulosa va takliflarni tavsiya etamiz:

- Kredit uchun kelib tushgan ariza bo'yicha atroflicha yondashuv, ya'ni daslabki monitoringni to'g'ri va mukammal amalga oshirish. Jumladan, mijozning dunyoqarashi, uning ijtimoiy sharoitiga, biznes xamkorlari o'rtasidagi mavqeiga xamda ushbu sohadagi tajribasiga e'tiborni qaratish va bu davrda uning bankka takdim etayotgan hujjatlar to'plamining to'liqliligini ta'minlash, ularning to'g'riligini tekshirish talab etiladi.

- Kredit bo'limi hodimi tomonidan uning moliyaviy ahvoli chuqur taxlil etilishi va holisona baho berilishi kerak;

- Kredit ajratilgan davrdan boshlab mijozning biznes-reja bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini, xisobraqamidagi mablaglar aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilib borish, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar o'z muddatida amalga oshirilishi, muddati o'tgan debitorlik-kreditorlik qarzdorliklariga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

- Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;

- Kredit ta'minoti sifatida uchinchi shaxsning kafillik shartnomasi taqdim etilgan bo'lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini chorakda bir marotaba tahlil qilib, uning to'lov qobiliyatini mijoz bilan birgalikda o'rganib borish lozim. Bu jarayonda kredit bo'limi mas'uliyati muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotimizda ko'rsatib o'tilgan risklarga befarq bo'lmaslik kreditlarning "muammoli kreditlar"ga aylanishining oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zokir Toshtemirovich Mamadiyarov. 2022. Risk Management in the Remote Provision of Banking Services in the Conditions of Digital Transformation of Banks. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS 2021). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 311–317. <https://doi.org>
2. Абдикаримова Д.Р. Банк кредитлари гаров таъминотини баҳолаш. Монография. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2016. – 168 б.
3. Платонова Ю.Ю., Зайченко С.Е. (2011). Инструменты управления портфелем проблемных кредитов в современных условиях. Финансы и кредит, (4 (436)), 29.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2019 йил 28 сентябрдаги 24/5-сонли қарори "Қарз олувчи жисмоний шахсларнинг қарз юкини тартибга солиш тўғрисидаги" низоми Юсупова О.А. (2016). Организация администрирования проблемной задолженности в кредитном портфеле коммерческого банка. Финансовая аналитика: проблемы и решения, (10 (292)), 54-66.
5. Абдикаримова Д.Р. Банклар гаров таъминотини баҳолаш зарурлиги ва асосий тамойиллари.// «Молия» журнали. – Тошкент, 2015. — №4. – Б. 58-63. (08.00.00; №12).
6. Абдикаримова Д.Р. Ўзбекистонда баҳолаш институтининг шаклланиш ва ривожланиш босқичлари.// «Молия» журнали. – Тошкент, 2016. — №1. – Б. 93-98.
7. <https://cbu.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

